

ALERGIK KASALLIKLARDA QO'LLANILADIGAN MODDALAR

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

TASHEV BAXTIYOR YULDASHBAYEVICH

MUSINJONOVA GANJINA SAN'ATJONOVNA

Annotatsiya: Ushbu maqola Alergik kasalliklarda qo'llaniladigan dori vositalari ularni olish usullari, tibbiyotda qo'llanilish sohalariga mo'ljallangan.

Abstract: This article is intended for the study of drugs used in allergic diseases, methods of their preparation, and areas of application in medicine.

Аннотация: Данная статья предназначена для областей медицины, применяемых при аллергических заболеваниях, способах их получения и областях применения в медицине.

Allergiya (qad. yun. ἄλλος — yot, begona + ἔργον — ta'sir) — immunopatologik jarayon bo'lib, organizmga ta'sir qiladigan yoki tana bilan aloqada bo'lgan, masalan, hayvonlar juni, chang yoki ari zahari kabi moddalarga immun tizimining reaksiyasidir. Alergik reaksiyani keltirib chiqaradigan modda «allergen» deb ataladi. Buday moddalar oziq-ovqat, ichimliklar va atrof-muhitda mavjud bo'ladi. Ularning aksariyati zararsiz, ya'ni ko'pchilikda allergiya chaqirmaydi. Ilergiya yer yuzida juda keng tarqalgan patologiya. Sog'liqni saqlash tashkilotlari ma'lumotiga binoan Shimoliy Amerika va G'arbiy Yevropada taxminan 20% odamlar pollinozga (allergik rinokonyuktivit, allergik rinit) duchor bo'lishgan.

Butun dunyoda allergiya bilan kasallanganlar soni oshishi kuzatilmoqda. «Allergy UK» ma'lumotlariga ko'ra, taxminan 30-40% odamlar hayotining muayyan bir qismida allergiyaga to'qnash keladi. Ushbu holatdan bolalar eng ko'p aziyat chekadi, ayniqsa oziq-ovqatga nisbatan.

Inson immuniteti allergenga patogen (tashqi zararli moddalar) deb javob beradi va uni begona bakteriya, virus, zamburug' yoki toksin kabi yo'q qilishga harakat qiladi. Biroq allergenning o'zi zararli emas, shunchaki immun tizimi bu moddaga juda sezgir bo'lib qolgan.

Immun tizimi allergen ta'sir qilganda uni yo'q qilish uchun antitanalar turi — immunoglobulin E (IgE) chiqaradi. U esa o'z navbatida organizmda allergik reaksiyaga olib keladigan kimyoviy moddalar ajratadi.

Ushbu kimyoviy moddalardan biri gistamin deb ataladi. Gistamin mushaklarning qisqarishiga olib keladi, shu jumladan qon tomirlarining devorlari va nafas yo'llarida ham. U shuningdek burunda shilliq ajralishiga hissa qo'shadi.

Bemor allergen bilan to'qnashganda reaksiya darhol yuzaga kelmaydi. Immun tizimi asta-sekin moddaga nisbatan sezgirlikni oshiradi. Vaqt o'tib, organizm o'ziga xos yuqori sezgirlikka ega bo'ladi — bu jarayon sensibilizatsiya deb ataladi.

Sensibilizatsiya bir necha kundan bir necha yilgacha davom etishi mumkin. Ko'pgina holatlarda sezuvchanlik jarayoni oxirigacha yakunlanmaydi va bemorda ba'zi alomatlar yuz beradi, ammo to'liq allergik reaksiya kuzatilmaydi.

Immun tizimi allergenga ta'sir qilganda, yallig'lanish va qo'zgalish xususiyati paydo bo'ladi. Namoyon bo'ladigan belgi va alomatlar uning turiga bog'liq. Allergik reaksiyalar ichakda (ovqat hazm qilish tizimi), terida, sinuslarda, havo yo'llarida, ko'zlar va burun yo'llarida paydo bo'lishi mumkin. Allergik holatlarda qichitqi o't (*krapiva*) tindirmasi foyda beradi. Bir osh qoshiq yangi qichitqi o't (*yoki qurug'ining*) gulini bir stakan qaynoq suvga soling. Qalin matoga o'rang, yarim soatcha tursin. Keyin dokada suzib, kuniga 4-5 mahal yarim stakandan yoki 3 mahal bir stakandan iliq hoida ichasiz. Damlama har gal yangidan tayyorlanadi. Bu shifobaxsh bo'lib, badandagi qichishishlarni yo'qotadi, allergenlardan sizni himoyalaydi.

Unutmangki, allergiyaga moyilligingiz bo'lsa, allergen mahsulotlar (*masalan baliq, ikra, qisqichbaqa, sitrus mevalar, qizil rangdagi rezavorlar, asal, shokolad, qahva singarilar*)ni iste'mol qilmay turganingiz ma'qul. Shuningdek, ari, asalari va qovog'ari chaqishidan o'zingizni ehtiyotlang. Qanotli hasharotlarni jalb qiladigan o'tkir hidli atirlar sepmang. Har bir dorini qo'llashdan avval allergolog-shifokor bilan maslahatlashing.

Gohida ovqat (*masalan, el hosil qiluvchi mosh va dukkaklilar, shuningdek, sintetik holda tayyorlangan, o'ta yog'li, achchiq va sho'r eguliklar*) yoqmaganda badanga eshakem toshadi. Qadimgi tabiblar xastalikni yong'oq moyi yordamida davolashgan. Eshakem toshib, qichishgan joylarga bir necha kun shu moydan surtib, ustidan ipak mato bilan bog'lab qo'yiladi.

Yong'oq moyini uy sharoitida tayyorlash mumkin. Buning uchun yong'oq mag'zini yaxshilab qizdirib, hovoncha yoki go'shtqiydalagichda maydalang. Sun'iy toladan tayyorlangan mato (*kapron*) ichini maydalangan yong'oq bilan to'ldiring (*chunki u yog'ni shimib olmaydi. Shuning uchun bu turdagi eski paypoqlaringizdan foydalansangiz bo'ladi*) va og'zini mahkam berkiting. Keyin uni ehtiyotkorlik bilan burang. Ostiga birorta idish qo'yishni unutmang. Nihoyat, undan sarg'ish-yashil rangli yog' oqib tusha boshlaydi. Qopchani to'liq bo'shatib, yog'dan bemalol foydalanishingiz mumkin. Aytgancha, bu yog' qo'l, yuz va bo'yin terilarini yumshatish, kuygan joylarni davolash, surunkali yaralarni tuzatish xususiyatiga ham ega.

Allergiyalar uchun eng samarali davolash allergen ta'siriga yo'l qo'ymaslikdir. Biroq, ba'zida allergendan to'la qutulish mumkin emas. Bemorlarni ularning alergenlarini qanday to'g'ri aniqlashni bilish uchun ham o'qitish muhimdir.

ALLERGIYAGA QARSHI DORI VOSITALARI

Dorilar allergiya belgilarini bartaraf etishga yordam beradi, ammo uni davolay olmaydi. Allergiyalarni davolash uchun ko'plab tabletkalar shifokor retseptisiz mavjuddir. Dori vositasini ishlatishdan oldin shifokoringizga murojaat qiling.

Antigistaminlar (gistamin antagonistlari): ular allergik reaksiyaning bir qismi bo'lgan, tanada ishlab chiqariladigan gistaminning ta'sirini to'xtatadilar. Ba'zi antigistaminlar bolalar uchun mos emas.

Burun uchun tomchilar: Ba'zi bemorlar pollinoz bo'lgan hollarda burun uchun tomchilar yordam berishadi, deb aytishadi. Burun uchun tomchilar qisqa muddatli ta'sir ko'rsatadi.

Leykotrien retseptorlari antagonistlari (antileykotrienlar): astmada yoki boshqa davolanishlar foyda bermaganda buyuriladi. Antileykotrienlar *leykotrien* — shishishiga olib keladigan kimyoviy moddalar ta'sirini bloklaydi. Leykotrien allergik reaksiya vaqtida tanada ishlab chiqariladi.

Steroid tomchilar: burun bitishini kamaytirishga yordam beradi, doimiy burun bitishi sinusit, jumladan va boshqa kasalliklarga sabab bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://med360.uz/kasalliklar/allergiya/>
2. <https://darakchi.uz/oz/16385>
3. <https://mymedic.uz/kasalliklar/allergiya/allergiya-sabablari-tashxisi-davolash/>